

Andijon viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-dekabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 955 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 855 tani tashkil qildi.


2025-yilning yanvar-dekabr oyilarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 32 849,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-dekabr oyilariga nisbatan 108,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 2 469,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 30 380,7 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 4 404,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 106,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 881 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 850 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oyilarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 15 024,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 14 450,4 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,2 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Xonobod (3,5 b.) shaharida, Oltinko'l (656,0 b.) tumanida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 230 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 228 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oyilarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 16 425,2 mlrd so'mga yetdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 94,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: X.Toxirov Tel: +998742288000 (6090)	Ijrochi: N. Usmanova Tel: +998742288000 (6041)	Manzil: 170100, Andijon sh., M.Tiklanish ko'chasi, 36-a
---	--	--	---